



O'QUV-BILUV FAOLIYATI: TUSHUNCHA, MOHIYAT VA MAZMUN

Qosimov Abdulaziz Obidjon o'g'li

Qo'qon davlat universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'quv-biluv faoliyati tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari, mazmuni va pedagogik-psixologik xususiyatlari keng yoritilgan. O'quv-biluv faoliyati ta'lim jarayonining markaziy elementi sifatida shaxsning intellektual va ijodiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi murakkab faoliyat turi sifatida tahlil etiladi. Maqolada tarixiy-falsafiy manbalar (Forobiy, Ibn Sino, Xorazmiy) bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik tadqiqotlar (D.B. Elkonin, G.I. Shukina, A.V. Xutorskiy va boshqalar)ga asoslanilgan yondashuvlar orqali o'quv-biluv faoliyatining shakllari, bosqichlari va turlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quv va biluv faoliyatining o'zaro farqlari, ularning motivatsion omillari, ijodiy komponentlari va ta'limda tutgan o'rni ko'rib chiqiladi.*

Annotation. *This article provides a comprehensive analysis of the scientific and theoretical foundations, content, and pedagogical-psychological characteristics of cognitive learning activity. It examines cognitive learning as a complex process that plays a key role in the intellectual and creative development of students within the educational system. The article draws upon historical and philosophical sources (Farobi, Ibn Sina, Kharizmi) as well as modern pedagogical research (D.B. Elkonin, G.I. Shukina, A.V. Khutorsky, among others) to explore the forms, stages, and types of learning and cognitive activity. It also discusses the distinctions between learning and cognitive activities, their motivational factors, creative elements, and role in modern education.*

Kalit so'zlar: *o'quv-biluv faoliyati, bilish faoliyati, o'quv faoliyati, motivatsiya, faoliyat yondashuvi, ta'lim jarayoni, pedagogik boshqaruv, reproduktiv faoliyat, mahsuldor faoliyat, ijodkorlik..*

Keywords: *cognitive learning activity, cognitive process, learning activity, motivation, activity-based approach, educational process, pedagogical management, reproductive activity, productive activity, creativity.*

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida inson kapitalini rivojlantirish, ijodiy fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, zamonaviy axborot oqimida to'g'ri yo'l topa oladigan shaxsni shakllantirish dolzarb vazifalardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Ushbu maqsadga erishishda o'quv-biluv faoliyatining roli alohida ahamiyat kasb etadi. O'quv-biluv faoliyatining pedagogik-psixologik asoslarini chuqur o'rganish, uni nazariy va amaliy jihatdan boyitish orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish mumkin. Shu bois, faoliyat, bilish faoliyati, o'quv faoliyati, o'quv-biluv faoliyati kabi tushunchalarning mohiyati, o'zaro bog'liqligi va ularning farqlari tahlil qilinishi zarur.

Metodologiya. Bilish faoliyatining nazariy asosi qadim mutafakkirlar – Forobiy, Ibn Sino, Ulug'bek, Navoiy va Xorazmiy asarlarida chuqur yoritilgan. Forobiy bilish



faoliyatining falsafiy va psixologik asoslarini ishlab chiqqan bo'lib, bilim egallashda muhokama qilish qoidalari, hukm chiqarish qobiliyatlari va fikrlash malakalarining zarurligini ta'kidlaydi. Ibn Sino fikricha, bilish sezishdan boshlanib, tafakkur orqali rivojlanadi. Bilimlarning shaxsiy qabul qilinishi, o'zlashtirilishi, musobaqalashish va mustaqil fikrlash orqali kuchaytirilishi muhimdir.

H.Yaratov¹³⁷ ham ilmiy izlanishlarida bilish faoliyatiga oid sharq mutafakkirlarining fikrlarini keltirar ekan, jumladan O'rta Osiyoning mashhur mutaffakkirlaridan biri Abu Nasr Forobiyning asarlarida bilishning falsafiy, fiziologik va psixologik asoslari haqida ham to'xtalib o'tilgan. Jumladan, Forobiyning fikricha, insonning bilish faoliyatini tashkil etish masalalarida qoidaga amal qilish zarur. Ma'lum bir fan asosida yotgan barcha prinsiplarni yaxshi bilish kerak. Ushbu prinsip va ma'lumotlardan zarur xulosa chiqara olish kerak, ya'ni muhokama etish qoidalarini egallash zarur. Forobiy bilim egallash jarayonida fikrlash malakalarini shakllantirish haqida shunday dedi: "Maqsadni amalga oshirishda qasd va g'ayrat qilishmo'ljallangan ishni bajarishda katta ta'sirga egadir". Uning fikricha yoshlar kuch-g'ayrat maqsadga ega bo'lganlaridan ularni asta-sekin egallashda yuqorilab boradilar.

Farobiy o'z asarlarida bilish faoliyatini tashkil etish tavsiyalarini ishlab chiqqan. Unda uch shart belgilanadi:

- muayyan fan asosida yotgan barcha tamoyillarni yaxshi bilish;
- muayyan fan ma'lumotlari, ya'ni hukm chiqarish qoidalarini egallashga aloqador tamoyillar va ma'lumotlar asosida zarur xulosalar chiqara olish;
- yanglish nazariyalarni inkor eta olish, yolgondan haqiqatni ajratib ola bilish va xatolarni tuzata olish uchun boshqa mualliflarning fikrlarini tahlil qila olish¹³⁸.

Buyuk Sharq mutafakkiri Abu Ali Ibn Sino nafaqat tibbiyot olamidagi kashfiyotlari bilan, balki ta'lim- tarbiya sohasidagi ishlari bilan ham diqqat e'tiborga sazovordir. U "Tadbiri manozil" asarida o'quvchilarning fikrlash faoliyatini yaxshilash, bilim berish jarayonining samaradorligini oshirishda o'quvchilarni birga o'qitish ham muhim ahamiyatga ega. Bunda o'quvchi zerikmaydi, fanni egallashga qiziqish yuzaga keladi, bir-biridan qolmaslik uchun harakat, musobaqalashish istagi rivojlanadi. Ibn Sinoning fikricha, bilish sezishdan boshlanadi. Ibn Sino insonning fikrlash qobiliyatigava iroda sifatlariga yuqori baho beradi va bu psixik jarayonlarning bir-birlaribilan mustahkam bo'liq ekanligini ta'kidlaydi.

O'qituvchining psixologik xususiyatlari va shaxsiy fazilatlariga oid mulohazalar qomusiy olim Umar Xayyomning asarlarida ham o'z aksini topgan. Umar Xayyomning asarlarida ta'kidlanishicha o'quvchining bilimlarini o'qituvchi bergan ma'lumotlardan va kitob o'qish orqaligina emas balki hayotiy xodisalarni bevosita o'rganish jarayonida

¹³⁷ Yaratov Hamid Muxtorovich "Sharq mutafakkirlari o'quv-biluv faoliyati haqida" Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi jurnali ISSN: 2181-1776, jild: 03, nashr: 03, 2022 105-109-b

¹³⁸ Yusufzoda Shabnami Yunus. Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning bilish faoliyatini shakllantirish. Dis. Buxoro – 2017, 13-b.





ko'nikma va malakalarning esa amaliyotda aynan bir xil harakat va amallarni esa ko'p marotaba takrorlashda ham turli usullarni qo'llash natijasida egallab oladilar.

Xorazmiy bilish faoliyati nazariyasiga ulkan hissa qo'shgan. U bilishning tajriba-kuzatuv va eksperiment metodiga asos solgan. Xorazmiy tomonidan quyidagi umumdidaktik tamoyillar hamda metodlar va shakllar asoslab berilgan: mustaqillik; ijodiy faollik; kuzatilgan faktlarni va hodisalarni tasvirlash va uni muntazam bayon qilish; tajriba-kuzatuv; eksperiment metodi; induksiya va deduksiya aspektida yakka va umumiylik birligi tamoyili; o'qitishning savol-javob shakli¹³⁹.

Abu Ali ibn Sinoning aql taraqqiyoti bosqichlari haqidagi fikrlari ham kishida qiziqish uyg'otadi. Unda uchta bosqich belgilanadi:

Birinchi bosqich - aqliy idrok bo'lib, unda aqliy kategoriyalar tushuniladi.

Ikkinchi bosqich - ikki tomonlama idrokdir.

Uchinchi bosqich - fikran idrok qilinadigan bilimlar o'zlashtirib olinganda namoyon bo'ladi.

Psixologiyada bolalarning o'quv faoliyatini birinchilardan bo'lib D.B.Elkonin o'rgangan edi. U o'quv faoliyati tarkibida motiv, o'quv topshirig'i, o'quv harakatlarini ajratgan. Ye.N.Kabanova-Meller asarlarida shunday tarkibiy qismlar to'rtta. Bilimlar tizimi, malaka, motiv, o'quv usullari. G.I.Shukina faoliyat tarkibini tahlil qilib oltita komponentni belgilagan:

- maqsad,
- motiv,
- mazmun,
- predmetga (o'quv materialiga) yo'nalgan harakat,
- usul,
- natija.

Pedagogik atamalar lug'atida bilish faoliyatiga ta'lim jarayonida o'quvchi va talabalarga taqdim etilgan o'quv materialining o'zlashtirilganlik darajasi; borliq va uning ob'yektiv qonuniyatlarini o'rganish, o'zlashtirish, egallash deya ta'rif beriladi. Bundan anglashilini turibdiki, bilish faoliyati bu o'qituvchi tomonidan o'rgatilgan bilimlarning mustahkamlash jarayoni hisoblanadi.

Bilish faoliyatining tarkibiy tuzilmasi psixologik nuqtai nazardan ko'plab olimlar – D.B. Elkonin, E.N. Kabanova-Meller, G.I. Shukina va boshqalar tomonidan chuqur o'rganilgan. Ularning tadqiqotlarida o'quv motivlari, harakatlar, usullar va natija o'quv-biluv faoliyatining asosiy komponentlari sifatida belgilanadi.

O'quv faoliyati va biluv faoliyati o'rtasidagi farqlar esa mazmun, mustaqillik, ijodiy yondashuv va subyektivlik darajasi bilan ajralib turadi. Biluv faoliyatida o'quvchi ta'lim

¹³⁹ Yusufzoda Shabnami Yunus. Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning bilish faoliyatini shakllantirish. Dis. Buxoro – 2017, 12-b.





subyektiga aylanadi, mustaqil fikrlaydi va ijodiy muammolarni hal qilishga harakat qiladi, o'quv faoliyati esa, asosan, tayyor bilimlarning o'zlashtirilishiga yo'naltiriladi.

O'quv-biluv faoliyatining shakllanishi va turlari reproduktiv, ijodiy, qidiruv faoliyati asosida yuzaga keladi. Reprodaktiv faoliyatda mavjud bilimlar takrorlanadi, mahsuldor faoliyatda esa yangi bilimlar yaratiladi. Bu faoliyatlar o'z navbatida didaktik tamoyillar, motivatsion omillar, muloqot va pedagogik boshqaruv bilan uyg'unlashgandagina yuqori natijaga olib keladi.

Inson faoliyati shakllari, turlari, avvalo, mehnat taqsimoti, odamlar, jamiyat ehtiyojining o'sishi jarayonida o'zgarib, rivojlanib boradi. Faoliyat elementlarini insonlar, inson ehtiyojlari va manfaatlari, faoliyat predmeti, motivlari, faoliyatning maqsadlari, amalga oshirish yo'llari, vositalari va usullari tashkil etadi. Faoliyat muayyan yaxlit jarayon sifatida o'zida mavjud olamni, ijtimoiy borliqni, amaliyotni o'zgartirish va tushuntirish dasturi hamda undan kelib chiqadigan harakatlar majmuini mujassamlashtiradi. Keyingi davrlarda faoliyat funksiyalarining murakkablashuvi, turlarining ortishi va chuqurlashishi kuzatilib, u ilmiy, amaliy, ijtimoiy ahamiyatga molik masalaga aylandi. Shu bois, faoliyat bir qancha fanlar: psixologiya, sosiologiya, siyosatshunoslik, ekologiya, iqtisodiy nazariya, huquqshunoslik, xususan, falsafaning ham maxsus tadqiqot ob'yekti sanaladi.

Demak, faoliyat inson hayotining voqelikka nisbatan faol munosabatining ro'yobga chiqish shakli va maqsadga ko'ra ongli ravishda harakatlar yig'indisi hisoblanadi.

Faoliyat — ijtimoiy va shaxsiy qimmatli motivlarga ko'ra biror maqsad sari yo'naltirilgan, o'ziga xos usul-vositalar asosida ma'lum natija bilan yakunlanadigan xatti-harakatlar tizimidir deya ta'riflaydi M.Ochilov, N.Ochilovalar¹⁴⁰. Hamda ular pedagogik faoliyat tushunchasiga ham to'xtali uni quyidagicha izohlaydilar:

Pedagogik faoliyat — bu, ijtimoiy va shaxsiy qimmatli motivga ko'ra ta'lim-tarbiyaning aniq bir maqsadiga (o'quv-biluv vazifasiga) yo'naltirilgan ma'lum vaziyat (shart-sharoit)da tegishli usul — vositalar yordamida ta'lim-tarbiyadan kutilgan natija bilan yakunlanadigan xatti-harakatlar tizimidir.

F.Xaydarovning ilmiy izlanishlarida o'quv-biluv faoliyati empirik va nazariy shart-sharoitlarning ma'lum ijodiy muloqoti sifatida tashkil etilgan jarayonda amalga oshiriladi deb izohlaydi. Shuningdek, o'qituvchi o'quvchining bilishga faol ta'sir etib, ularning o'quv faoliyatlarini hamda shu faoliyat bilan bog'liq bo'lgan hatti harakatlarni tashkil qiladilar.

Pedagogik ensiklopediyada¹⁴¹ o'quv faoliyati, o'quv-biluv faoliyati kabi tushunchalarga quyidagicha izohlar berilgan.

O'quv-biluv faoliyati – ta'lim oluvchilarning dars jarayonida amalga oshiriladigan faoliyatlari majmuini ifodalovchi tushuncha.

O'quv faoliyati – o'quvchilarning atrof olamni bilish, bilim va tushunchalarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan o'quv harakatini ifodalovchi tushuncha.

¹⁴⁰ M.Ochilov, N.Ochilova. Oliy maktab pedagogikasi. Darslik. -T., «Aloqachi», 2008, 63-b

¹⁴¹ "Pedagogik ensiklopediya" III jild tuzuvchilar: jamoa "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2017.



O'quv faoliyati o'quv jarayonida yuzaga chiqadi shu o'rinda pedagogik atamalar lug'atida o'quv jarayoniga o'quvchi yoki talabalarga bilim berish, ko'nikma va malakalarini hosil qilish hamda tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon deb ta'rif berilgan.

O'qish – shaxsning bilim va faoliyat usullarini egallashga hamda uni mustahkam esda saqlab qolish jarayoni.

O'quv faoliyati doirasida bilish faoliyati mustaqillik darajasiga qarab farqlanadi: reproduktiv va taqlidiy, qidiruv va ijro etuvchi, ijodiy¹⁴².

Reproduktiv va imitatsion faoliyat ideal va sub'yektiv harakatlarning ijodiy muloqoti natijadorligi davomida namoyon bo'ladi. O'quv-biluv faoliyati, ixtiyoriy harakatlar va ijodiy muloqot natijadorligida namoyon bo'lish usullari bo'lib xizmat qiladi. Bilishga nisbatan faoliyat o'quv-biluv qiziqishlarning mavjudligi, axborot olish va uni ishlatish ko'nikmalarini egallashda ifodalanadi.

A.V.Xutorskiy o'quv-biluv kompetensiyasining komponentlari ichida bilish faoliyatini asosiy bo'g'in sifatida ajratib ko'rsatadi va uni borliq hodisalarini bilish jarayoni deb hisoblaydi. O'quv-bilish kompetensiyasining tarkibiy qismlarini (bilimlar, ko'nikmalar, maqsad qo'yish usullari, mulohaza yuritish) shakllantirish shaxsning o'ziga xos qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan faoliyatning funksional-qidiruv algoritmi asosida shakllangan fazilatlarida namoyon bo'ladi¹⁴³.

Anna Borisovnaning ilmiy izlanishlarida o'quv-biluv faoliyati tushunchasining genezisiga to'xtalar ekan u o'quv-biluv faoliyati talabani o'quv-biluv kompetensiyalarini egallashga qaratilgan faoliyati sifatida belgilanadi deya ta'kidlaydi. Ushbu faoliyatning natijasi nafaqat bilim olish mahsuli (masalan, muammoli yoki ijodiy natija), balki talabani shaxsiy o'zgarishlari va rivojlanishidir.

Bu faoliyat talaba tomonidan mustaqil ravishda loyihalashtiriladigan va amalga oshiriladigan maxsus tashkil etilgan, maqsadli va boshqariladigan jarayon sifatida tavsiflanadi. Talaba o'quv jarayonida yangi bilimlarni o'zlashtirib, shaxsiy rivojlanishga hissa qo'shadi¹⁴⁴.

Shuningdek, o'quv-biluv faoliyati talabani shaxsiy maqsadlarini (ichki motivatsiyasi) va kognitiv faoliyatni (axborot yig'ish, tahlil qilish va o'zlashtirish) o'z ichiga oladi. Bu jarayon bilim olishni ijodiy va ma'noli bo'lishini ta'minlashini ta'kidlab o'tgan. Bu orqali u o'quv-biluv faoliyati talabani asosiy faoliyati ekanligini nazarda tutadi.

M.Ochilov, N.Ochilovalar talabani o'quv-biluv faoliyati haqida quyidagicha izohni ilgari surishadi.

Talabani o'quv-biluv faoliyati — bu, shaxsiy va ijtimoiy qimmatli motivga ko'ra ta'lim-tarbiyaning aniq bir maqsadini (vazifasini) tegishli shakl-usul, vositalar yordamida

¹⁴² Атаханов Р. Математическое мышление и методика определения уровня его развития/ под ред. В.В. давыдова. - Рига: эксперимент, 2000. -208 с

¹⁴³ Ergashevna, E. S. (2023). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv-bilish kompetensiyasining mazmuni. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 504-507.

¹⁴⁴ Anna Borisovna Zvonenko "Генезис понятия «учебно-познавательная деятельность»" (o'quv-biluv faoliyati tushunchasining genezisi) 2021-yil 30-aprel "Педагогика. Вопросы теории и практики" jurnali. 162-167-b



bilib olishi (o'zlashtirishi)ga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya natijasi bilan yakunlanadigan xatti-harakatlari majmuidir¹⁴⁵.

Faoliyatli yondashuv ta'lim jarayonini tashkil etishning xilma-xil usullarini vujudga keltirdi. Bilim olish uchun motiv, maqsad aniq bo'lishi bilan birga talaba o'quv materialini tushunib o'zlashtirib olishiga imkon beradigan o'quv-biluv harakatlarini ham bajarishi zarur. Professor-o'qituvchining vazifasi bilim olishning qulay yo'lini ko'rsatib, talabalarga uni bajartirishdan iborat.

Talaba o'quv vazifasini (faoliyatni) shu ishni bajarish usuli haqida oldin o'zlashtirilgan (bilib olingan) axborotlar asosida bajaradi. Oldin bilib olingan axborotlarga bevosita tayanmay bajarish ta'lim - tarbiya ishi uchun to'g'ri kelmaydi. Faoliyatni bajarish usuliga (qanday bajarishga) doir oldin o'zlashtirilgan axborotlarni ishlata bilish esa ayrim o'quv elementlari (bo'laklari) va butun o'quv predmeti mazmunini o'zlashtirish sifatiga ta'sir etadi. Bunda qanday harakat qilishning oldin bilib olingan mo'ljal asosi — yo aynan oldin bajarilganidek yoki faoliyatning shart-sharoiti (vaziyati)ga qarab o'zgartirilgan holda ishlatilishi ham mumkin.

Zamonaviy tadqiqotlarda o'quv-biluv faoliyati shaxsiy rivojlanish, kognitiv jarayonlar (sezish, diqqat, xotira, nutq, fikrlash), va shaxsiy motivatsiya bilan bog'liq murakkab, boshqariladigan jarayon sifatida qaraladi. Bu esa talabaning faolligi, axborot bilan ishlash qobiliyati, masalaga innovatsion yondashuvi orqali namoyon bo'ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o'quv-biluv faoliyati zamonaviy ta'limning asosiy mohiyatini tashkil etuvchi, shaxsning intellektual, axloqiy va ijodiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi murakkab jarayondir. U nafaqat o'quv materialini egallash, balki shaxsiy o'zgarish, o'z fikrini mustaqil shakllantirish, voqelikni tahlil qilish va unga ongli munosabat bildirishni ham o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham o'quv-biluv faoliyatini tashkil etishda pedagogik yondashuv, motivatsiya, muloqot va ijodiy muhit muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Yaratov Hamid Muxtorovich "Sharq mutafakkirlari o'quv-biluv faoliyati haqida" Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi jurnali ISSN: 2181-1776, jild: 03, nashr: 03, 2022 105-109-b
2. Yusufzoda Shabnami Yunus. Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning bilish faoliyatini shakllantirish. Dis. Buxoro – 2017, 13-b.
3. Yusufzoda Shabnami Yunus. Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning bilish faoliyatini shakllantirish. Dis. Buxoro – 2017, 12-b.
4. M.Ochilov, N.Ochilova. Oliy maktab pedagogikasi. Darslik. -T., «Aloqachi», 2008, 63-b

¹⁴⁵ M.Ochilov, N.Ochilova. Oliy maktab pedagogikasi. Darslik. -T., «Aloqachi», 2008, 63-b





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



5. “Pedagogik ensiklopediya” III jild tuzuvchilar: jamoa “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2017.
6. Атаханов Р. Математическое мышление и методика определения уровня его развития/ под ред. В.В. давыдова. - Рига: эксперимент, 2000. -208 с
7. Ergashevna, E. S. (2023). Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quv-bilish kompetensiyasining mazmuni. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 504-507.
8. Anna Borisovna Zvonenko “Генезис понятия «учебно-познавательная деятельность»” (o‘quv-biluv faoliyati tushunchasining genezisi) 2021-yil 30-aprel “Педагогика. Вопросы теории и практики” jurnali. 162-167-b
9. M.Ochilov, N.Ochilova. Oliy maktab pedagogikasi. Darslik. -T., «Aloqachi», 2008, 63-b

